

## ISLOM DININING VUJUDGA KELISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7825224>

**Hamidova Muyassarbonu Odiljon qizi**  
*Oriental universiteti 2-kurs 9-gurux talabasi*  
*Tarix sirtqi fakultet*

**Annotatsiya:** *Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'lomit. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinchomon yashashlarini uqtirib keladi. Ayni paytda islam dinida razolat, kibr - havo, adovat, hasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Ushbu maqolada islam dinining vujudga kelishi haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xudo, islam dini, quron, din, e'tiqod, alloh, arab, xalq, itoat, payg'ambar, iymon, marosim, ramazon, qurbanlik, hayit, Makka.*

Din - xudo yoki xudolar, g'ayritabiyy kuchlar mavjiddligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatları orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islam dini ta'limotiga ko'ra, din - Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan ayni vaqtida insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Islam dini jahon dirlari ichida eng yosh dindir, e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan esa xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Yil sayin bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda.

Islam dini VII asrda Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistoni) paydo bo'ldi. Bu orol arab tilida "Jazirat al-Arab", ya'ni arablarning yarim oroli degan ma'noni anglatadi. Turkiy xalqlar va eronliklar "Arabiston" deb ataydilar.

"Islam" so'zi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Itoat va bo'y sunish.
2. Ixlos va turli ofatlardan salomat bo'lish.
3. Suh va omonlik.

Islam-Alloh yagona degan e'tiqod bilan unga bo'y sunmoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Allohga itoat qilgan va Alloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan kishi musulmon (muslim-sadoqatli) deyiladi. Islomning paydo bo'lishi VI asr oxiri-VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan bevosita bog'liqdir. Xo'sh, bu ijtimoiy-iqtisodiy ahvol nimalarda o'z ifodasini

topgan edi? Avvalo, arablarning katta-kichik qabila va urug'larga bo'linib ketganligida. Bunday bo'linish - ular o'rtasidagi doimiy o'zaro urushlarning asosiy omiliga aylangan edi. Bu urushlar faqatgina vayronalik keltirmoqda edi, xolos.

Ikkinchidan, qo'shni davlatlar - Vizantiya imperiyasi, Sosoniy Eroni va Habashiston Arabiston yarim orolida siyosiy birlikning yo'qligidan foydalanib, doimiy ravishda bu o'lkaga hujum qilardilar, arablarni asoratga solardilar. Shunday qilib, VII asrda arablar yagona davlat barpo etishini davr ham taqozo etmoqda edi. Siyosiy jihatdan birlashish, ya'ni yagona Arab davlatini vujudga keltirish-xalqning kuchini tashqi bosqinchilarga qarshi kurash uchun birlashtirish hamda o'zaro ichki urushlarga barham berish vazifasini hal etish lozim edi. Bunday siyosiy birlashuv u davrda faqatgina yakka xudolik dini orqaligina, yagona xudo shiori istagidagina amalga oshirilishi mumkin edi, xolos.

VI asrda Arabistonda ko'p xudolik dinlari mavjud edi. Ayni paytda, shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'p xudolik vujudga kelayotgan va asta-sekin o'ziga taraqqiyot yo'lini olib borayotgan yangi tuzum-feodal jamiyatning ijtimoiy va siyosiy talablariga ham muvofiq kelmas edi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar Islom vujudga kelishining obektiv shart-sharoitlarini tashkil etadi.

Islomning paydo bo'lishiga muayyan g'oyaviy muhit-birinchidan, arablar milliy ongingin uyg'onganligi, ikkinchidan, haniflar (chinakam e'tiqod qiluvchilar, haqiqat izlovchilar)ning diniy harakati ham qulay sharoit yaratgan edi. Haniflar arab qabilalarini birlashtirish jarayonining g'oyaviy ifodachisi ham edi. Hanifiylikning markaziy g'oyasini-yakka xudoga ishonish, qabila xudolariga va mahalliy xudolarga sig'inishdan voz kechish tashkil etardi. Hanifiylar o'z targ'ibotlarida arablarni "og'ir ahvoldan qutqaruvchi xaloskor"ning yaqinlashib qolganligini xabar berar, ilohiy qudratning hukmini sabrsizlik bilan kutib turish lozimligini uqtirar edilar. Ular har narsani yagona xudoning qudrati, uning marhamati yoki g'azabi bilan bog'lar edilar. Ijtimoiy adolatsizlikdan, chet el bosqinchilari, qudlorlarning asoratidan bezor bo'lgan qullarning, og'ir ahvolda yashagan arab ommasining qalbida "yagona Allohnningadolati", "Xaloskorning kelishi", "Dunyoning oxiri" haqidagi targ'ibotlar muayyan tuyg'u, unga ishonish hislarini uyg'otgan. Milodning VI asrida Arabiston yarim orolida hukm surgan davlatlar qulagach, mazkur karvon yo'lining markazida joylashgan Makka Arabiston shaharlarning eng yirigi va ahamiyatlisi bo'lib qolgan. U deyarli hamma tomoni darali tog'lar bilan o'ralgan vodiyya joylashgan. Shuning uchun ham bu yerda hech qachon shahar atrofiga devor qurish zaruratu bo'lмаган. U yerdagi Alloh qudrati bilan yaratilgan deb hisoblanuvchi Zamzam qudug'i, Ka'ba bora-bora Makkani arablarning muqaddas joyiga aylantirgan, uning shuhratini orttirgan. Makkada hech qanday arxeologik ishlar olib borilmagani uchun uning yoshini aniqlashning iloji bo'lмаган. V-VI asrlarda Arabiston yarim orolidagi davlatlar (G'assoniylar, Lahmiylar, Kinda va Himyor) inqirozga yuz tutganligi, so'ngra umuman tarix sahifasidan yo'qolib

ketganligi Makkaga qo'l kelgan. Arabistonga qo'shni buyuk davlatlar - Vizantiya va Eronning yarim orol janubi va shimalida o'z hukmini o'rnatgani ham Makka foydasiga hizmat qilgan. Bu davrda Makkada quraysh qabilasi hukmronlik qilardi. Butun quraysh urug'larining hurmat-e'tiborini qozongan shaxs Hoshim edi. Bu hurmat-e'tiborga u oddiy xalqqa, yo'qsillarga xayr-ehson qilish, qurbanlikka mollar so'yib ularni boqish hisobiga erishgan edi.

Islom davrigacha bo'lgan davr johiliya (arabcha Jahula-bilmaslikdir) deb ataladi. Bu davrda turli arab qabilalari ko'pgina but-sanamlarga topinishgan ya'ni ko'pxudolikka e'tiqod qilishgan. Sanamlarni ko'pligi tez-tez arab qabilalari o'rtasida ixtiloflar keltirib chiqargan, shuningdek aholi o'rtasida qizlarni tiriklayin ko'mish, mayxo'rlik va boshqa buzuqliklar keng tarqalgan edi.

Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambarlar va elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga

oxirgi rasul etib Muhammadni tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'on nozil qildi. Muhammad oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo — Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohimga nozil bo'lgan din.

Islomning muqaddas kitobi Qur'ondir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohnинг vahiy qilgan dalolati deb tushuniladi. Islomning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va ta'qiqlari Qur'on bilan birga uning tafsirlarida, hadis to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, VIII-XII-asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini

topgan.

Qur'on- 23 yil mobaynida nozil qilingan 114 sura 6236 ta oyatdan iborat Hazrati Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) davrida kitobga jamlanadi.

Qur'oni Karimda 25 payg'ambarning nomi zikr etilgan. Diniy ta'limotga ko'ra hech kim payg'ambarlikka o'z bilimi, o'qib o'rganishi, yoki niyati bilan erisha olmaydi. Payg'ambarlik - olloh o'zi suygan bandasiga in'om etiladigan ehsondir.

Islom ta'limotining asosini iymon, islom va ehson tashkil etadi. Iymon 7 aqidaga asoslanadi. Bular:

1) Ollohga; 2) Farishtalarga; 3) Muqaddas kitoblarga; 4) Payg'ambarlarga; 5) Oxiratga; 6) Taqdirga; 7) O'lgandan keyin tirilishga ishonishdir. Barcha 7 aqida to'laligicha imoni mufassal deb ataladi.

Shuningdek islomda “Islom arkonlari” degan tushuncha ham mavjud. U 5 ta asosiy narsani- diniy marosim talablarini o’z ichiga oladi. Bular:

1. Kalimai shahodat
2. Namoz o’qish
3. Ro’za tutish
4. Zakot berish
5. Haj qilish

Bu 5 ta asosiy farzlardan tashqari janoza, sunnat, nikoh va qurbanlik qilish kabi muhim marosimlar ham mavjud.

Boshqa dinlarda bo’lganidek islomda ham diniy bayramlar mavjud. Bularning asosiylari-Ro’za hayiti, qurban hayiti va Movlud ( Muhammad payg’ambar tug’ilgan kun)dir.

Ramazon islom olamida muqaddas oylardan sanaladi. Zikr qilinishicha Hadisi sharifda bu haqda “ Bu ummatim oyi, bunda yuz bergen gunohlar kechiriladi ” deyiladi

Ramazon hayiti hijriy oylarning uchinchisi hisoblanmish shavval oyining birinchi kuni nishonlanadi. Ramazon oyida 30 kun ro’za tutgan musulmonlar zimmalariga yuklatilgan farz amalini sog’ salolmat ado etib tugatganliklari munosabati bilan xursandchilik izhor etish demakdir.

Qurban hayiti zulhijja oyining 10-kuni nishonlanadi. Bu kunda qurbanlik qilinadi. Qurbanlik ollohga yaqin bo’lish uchun uning yo’lida qurbanlik kunlari biror jonliq so’yishdir. “ Bu nomning atalish sababi Ibrohim alayhissalomning Ollohning amri bilan o’g’illari Ismoilni qurbanlik qilishga kirishgan paytda, Tangri bir qo’chqor yuborib o’g’li o’rniga uni qurbanlik qilishga buyurgan”, - deyiladi. Bu haqda qur’onda ham aniq xabarlar berilgan. Shu bois hajga borganlar, boy-badavlat musulmonlar zimmasiga qurban hayiti kunlari jonliq so’yib qurbanlik qilish vojib qilingan.

Islomning muqaddas manbaalari hadislar, buyuk muhaddislar hisoblanadi.

Qur’oni Karim Islom dinining asosiy ilohiy, muqaddas kitobidir. Islom dinida aytilishicha Qur’on Allohning kalomi (kalomulloh) bo’lib, uning har bir kalomi Allah tarafidan so’zma-so’z nozil etilgan va Jabroil alayhissalom orqali payg’ambarga yetkazilgan. Allah taolo tarafidan oxirgi payg’ambar Muhammad alayhissalomga yuborilgan bu so’nggi kitob to qiyomat-qoyim bo’lgunga qadar, insonlar orasida abadiyan amal qiladi deyiladi.

Islomda aytilishicha Qur’oni Karim va Islom dini muayyan qabila, xalq, elatlarga yuborilgan bo’lmay, balki butun bashariyatga, yer yuzidagi barcha xalqlarga nozil etilgan. Qur’onning nozil qilinishi-vahiy qilib yuborilishi muqaddas ramazon oyining yigirma yettinchi kuni kechasi boshlangan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib, ro’zautilgan kunning yigirma yettinchi kechasi “Laylat ul-Qadr”, ya’ni qudrat kechasi, ilohiy qudrat namoyon bo’lgan tabarruk kecha deb ulug’lanadi.

Qur’ondaa aytilishicha Islom aqidalari, e’tiqod talablari, xuquq va axloq me’yorlari, inson uchun foydali bo’lgan, har bir zamonga to’g’ri keladigan va

qiyomatgacha o'zgarmaydigan hikmatli hukmlar yozilgandir. Qur'onи karimning asosiy mavzusi va maqsadi bashariyat tafakkurida ko'п xudolikka barham berish, yakka xudolikka targ'ib qilish va Islom dinini o'rnatishdir.

Islomning asosiy aqidasi — „Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli”. Islom ilohiyotining ilk shakli — kalom bo'lib, VIII-asrda Arab xalifaligida vujudga kelgan.

Islom dini bugungi kunda dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri bo'lib, 172 mamlakatning 1,5 mlrd dan ortiq aholisi unga e'tiqod qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Sayid Mahmud Tarziy-Alixon to'ra tarjimasi. T.: “Mehnat” nashr, 1991.
2. Islom ensiklopediyasi. Toshkent, “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” 2004 yil.
3. Qur'on Karim. (A. Mansur tarjimasi). Toshkent, 1992 yil
4. Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi. Toshkent, «Islom universiteti», 2002 yil.
5. Ибрагимов Н. И. Святых в исламе по арабским источникам XII-XIV вв; Ислам в истории народов Востока. М., 1991 год.
6. <https://www.elib.buxdu.uz>
7. <https://fayllar.org>